



Durdona NAIMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: n.umidullayev@gmail.com

Buxoro davlat texnika universiteti professori, p.f.d Z.To'xtayeva taqrizi asosida

PEDAGOGICAL APPROACH TO DEVELOPING COMMUNICATION AND SPEECH MECHANISMS IN SPECIAL SCHOOL STUDENTS: EDUCATIONAL CONDITIONS AND ENVIRONMENT

Annotation

This scientific work analyzes the development of communication skills and speech mechanisms among students in special schools through pedagogical approaches. The study particularly focuses on didactic tools and methods aimed at addressing the individual needs of students with hearing, visual, motor, or intellectual impairments and expanding their opportunities for interaction. The research pays special attention to the significance of socio-psychological conditions in the educational process, principles of adapting the pedagogical environment, and the effectiveness of interactive methods. The study concludes with practical recommendations adapted for special education institutions.

Key words: Special education, communication culture, speech development, pedagogical conditions, individualized approach, psychological-pedagogical adaptation, interactive methods, special school, social integration, emotional development.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ КОММУНИКАТИВНЫХ И РЕЧЕВЫХ МЕХАНИЗМОВ У УЧАЩИХСЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ШКОЛ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данном научном исследовании анализируются вопросы формирования коммуникативных навыков и речевых механизмов у учащихся специальных школ на основе педагогических подходов. Особое внимание в работе уделено разработке дидактических средств и методов, направленных на расширение возможностей коммуникации учащихся с нарушениями слуха, зрения, двигательной активности или умственного развития с учётом их индивидуальных потребностей. Подробно анализируется значение социально-психологических факторов в процессе обучения и воспитания, принципы адаптации педагогической среды и эффективность интерактивных подходов. По итогам исследования разработаны практические рекомендации, адаптированные для специальных школ.

Ключевые слова: Специальное образование, культура общения, развитие речи, педагогические условия, индивидуальный подход, психолого-педагогическая адаптация, интерактивные методы, специальная школа, социальная интеграция, эмоциональное развитие.

MAXSUS MAKTAB O'QUVCHILARIDA MULOQOT VA NUTQ MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUV, TA'LIM OLUVCHILARNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy tadqiqotda maxsus maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilarda muloqot ko'nikmalari va nutq mexanizmlarini rivojlantirish masalalari turli pedagogik yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Ish jarayonida, ayniqsa, eshitish, ko'rish, harakatlanish yoki aqliy rivojlanishda nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarning individual ehtiyojlarini qondirish va ularning muloqot imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita hamda metodlar yoritib berilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-psixologik omillarning o'rni, pedagogik muhitni moslashtirish tamoyillari hamda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi alohida o'rganilgan. Tadqiqot yakunida esa maxsus maktablar uchun amaliyotga yo'naltirilgan moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Maxsus ta'lim, muloqot madaniyati, nutq rivoji, pedagogik shart-sharoitlar, individual yondashuv, psixologik-pedagogik moslashuv, interaktiv metodlar, maxsus maktab, ijtimoiy integratsiya, emotsional rivojlanish.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda yangilanishlar jarayoni tobora jadallashib, barcha sohalarida inson qadri va manfaatlarini ustuvorlikka qo'ygan tamoyillar asosida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar, inson salohiyatini ro'yobga chiqarishning bosh mezoniga aylangan. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, maxsus maktab o'quvchilari uchun ham zamonaviy, ilmiy hamda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb masala sifatida qaralmoqda [1]. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan - ta'lim islohotlarini yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or va raqamli pedagogik texnologiyalar

asosida kadrlar tayyorlash, maktabgacha ta'limdan boshlab oliy bosqichlargacha uzluksiz va integrallashgan ta'lim tizimini yo'lga qo'yish g'oyalari maxsus ta'lim muassasalariga ham bevosita daxldordir. Chunki bu toifadagi o'quvchilar ham alohida yondashuv, individual ehtiyojlar, maxsus sharoitlar asosida ta'lim-tarbiya oluvchi jamiyatning muhim a'zolaridir.

Maxsus ehtiyojli o'quvchilarning muloqotga kirishish, fikr almashish, o'z fikrini ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirish ularning jamiyatga to'laqonli integratsiyasi va faol shaxs sifatida rivojlanishi uchun muhim omildir. Shuning uchun ham pedagogik jarayonda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, psixomotor, emotsional va

kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan metod va texnologiyalarni joriy etish zaruriyati ortmoqda [2].

Shu boisdan, muloqotga kirishish ehtiyoji bola hayotining dastlabki davrlaridanoq kuchli namoyon bo'ladigan tabiiy ehtiyojlardan biridir. Bu esa shaxsning to'laqonli rivojlanishi, o'zini anglash va jamiyat bilan o'zaro munosabatga kirishishining negizini tashkil qiladi. Maxsus maktablarda ushbu ehtiyojni to'g'ri tushunish va ta'lim-tarbiya jarayonini shunga mos strategiyalar asosida tashkil etish, har tomonlama sog'lom hamda ijtimoiy faol shaxs kamolotini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maxsus maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan ish jarayonida muloqot va nutqni rivojlantirish, shuningdek, ularga mos pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish masalalari ilmiy manbalarda keng o'rin olgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu yo'nalishdagi izlanishlar yangicha metodologik yondashuvlar va zamonaviy talablar asosida yanada takomillashmoqda. Mavzu yuzasidan mavjud adabiyotlarni tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, nutq rivojida individual yondashuvni qo'llash, maxsus pedagogik sharoitlarni yaratish hamda ijtimoiy-psixologik muhitning ta'sirini o'rganishga doir turli nazariy va amaliy qarashlar mavjud. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi tub islohotlar – maktabgacha va maxsus ta'lim uzviyligini ta'minlash, sifat ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan huquqiy asoslar, jumladan 2019-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, 2018-yil PQ-4312-son qaror va 2024-yil PF-152-son Farmon kabi normativ hujjatlar maxsus ehtiyojga ega bolalarning nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda ilmiy asoslangan, zamonaviy yo'nalishlarni belgilab bergan [3].

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar (V.V. Lebedinskiy, L.S. Vygotskiy, A.A. Leontev, R.S. Nemov, M.K. Bikkulov, O. Ortiqova va boshqalar) o'z ishlari pedagogik yondashuvning muhim jihati sifatida – har bir bolaning psixologik holati, nutq faoliyati va emotsional ahvolini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish zarurligini alohida qayd etadilar. Bu fikrlar, ayniqsa, maxsus maktab o'quvchilarining individual rivojlanish trayektoriyasini belgilashda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida maxsus maktablar uchun yangi o'quv-metodik qo'llanmalar, tarbiyaviy dasturlar, dars ishlanmalar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ham logoped, defektolog, psixolog mutaxassislarini zamon talablari asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [4].

Umuman olganda, mavjud adabiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muloqot va nutq mexanizmlarini rivojlantirishda yagona model yo'q – har bir bolaning imkoniyati, holati va ehtiyojidan kelib chiqib, moslashtirilgan, yondashuvli, emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti zarur. Shuning uchun, mazkur mavzu doirasida o'rganilgan nazariy hamda amaliy manbalar tahlili ta'lim jarayonida differensial va integratsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan asoslarni belgilab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik poydevorini insonparvarlik g'oyalari hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari tashkil qiladi. Xususan, maxsus maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilarning nutq va muloqot malakalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik metodlar asosida joriy etilmoqda.

Tadqiqotda sistemali, kompleks va integrativ metodlar uyg'unlashtirilgan holda qo'llanildi. Natijada pedagogik jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillar – sinfdagi ta'lim muhiti,

pedagogning yondashuvi, qo'llanilgan didaktik vositalar hamda o'quvchilarning hissiy-emotsional holati yagona tizim doirasida o'rganildi va tahlil etildi. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan pedagogik metodlarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari ham tashkil etildi [5].

Ushbu tadqiqot jarayonida qo'llanilgan asosiy metodlar sifatida kuzatish, suhbat o'tkazish, test sinovlari, psixologik diagnostika, faoliyat mahsullarini tahlil etish, pedagogik tajriba, amaliy mashg'ulotlar hamda monitoring ishlari belgilandi. Ayniqsa, kuzatuv va suhbat usullari orqali o'quvchilarning muloqotga kirishish darajasi va nutq rivojining hozirgi holati baholandi. Eksperimental bosqichda esa nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan maxsus mashqlar va interaktiv metodlar sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqotda sifat (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) tahlil metodlari uyg'unlashtirildi. Sifat jihatdan o'quvchilar bilan olib borilgan muloqot tahlil etildi, ular orasida kuzatilgan tipik muammolar ajratib ko'rsatildi. Miqdoriy tahlil bosqichida diagnostik testlardan olingan natijalar asosida statistik ma'lumotlar shakllantirildi va ushbu ko'rsatkichlar pedagogik tadbirlarning samaradorligini baholashda asosiy mezon sifatida qo'llanildi [6].

Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari, avvalo, bolalarning ijtimoiy integratsiyasiga xizmat qiladigan kommunikativ kompetensiyalarni mustahkamlashga qaratilgan. Bundan tashqari, bolalarning nutq rivojiga to'stinlik qiluvchi psixologik va pedagogik omillarni bartaraf etish, ularning hissiy barqarorligini qo'llab-quvvatlash hamda ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish jarayoni metodik jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot yakunida maxsus maktab o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan moslashtirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar ta'lim muhiti va ijtimoiy-psixologik sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda taklif etilgan bo'lib, ularning amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ahamiyati yanada ortadi.

Tahlil va natijalar. Maxsus maktablarda ta'lim oluvchi o'quvchilarda muloqot va nutq jarayonlarini rivojlantirish o'ziga xos pedagogik yondashuvlar hamda moslashtirilgan ta'lim sharoitlarini talab qiladi. Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatuvlar, suhbatlar, diagnostik mashg'ulotlar va pedagogik tajribalar natijasida ma'lum bo'ldiki, bunday o'quvchilarning asosiy muloqotdagi qiyinchiliklari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Bular - og'zaki nutqning yetarli darajada rivojlanmagani, mimika va jestlar orqali fikrni to'liq ifodalashdagi cheklavlar, hissiy barqarorlikning pastligi hamda ijtimoiy muhitga moslashishda uchraydigan qiyinchiliklaridir.

Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanishi ko'p jihatdan ularning psixofiziologik xususiyatlariga, o'qituvchining individual yondashuvi va ta'lim muhitidagi pedagogik sharoitlarning sifatiga bog'liq ekanini aniqlandi. Shuningdek, nutqiy faoliyatning sustligi, ko'p hollarda, muloqotga kirishishda o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi va o'z fikrini aniq ifoda etishga doir mashg'ulotlarning yetishmasligi bilan bog'liq [7].

Eksperimental sinovlar natijasi shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar, ayniqsa rolli o'yinlar, suhbat-muloqot mashqlari, nutqni faollashtiruvchi vizual materiallar va multimedaviy vositalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar muloqot jarayonida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Jumladan, tajriba guruhi o'quvchilarida 2 oy davomida olib borilgan pedagogik ishlar natijasida og'zaki nutqda faol so'zlardan foydalanish 35% ga oshgan, emotsional ifodaning ochiqligi esa 42% ga ko'tarilgan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik yondashuv samaradorligini ta'minlash uchun bir qator muhim omillar mavjud. Bular jumlasiga ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhit yaratish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, o'quvchilarning nutq faoliyatini baholashda rag'batlantiruvchi metodlardan foydalanish hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus mashqlar to'plamini ishlab chiqish kiradi [8].

Bugungi globallashtirish sharoitida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini tubdan isloh qilish zaruratga aylanmoqda. Chunki har qanday jamiyatning taraqqiyoti, ayniqsa, inson kapitalining yuksalishi ta'lim tizimining sifati bilan bevosita bog'liqdir. Maxsus ta'lim muassasalarida o'quvchilarning muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish va nutq faoliyatini takomillashtirish jarayoni, ularning shaxsiy rivojlanishiga emas, balki jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun ham muhim omil sanaladi [9].

Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning asosida har bir bolaning individual ehtiyojlariga mos yondashuvni shakllantirish, ularning tabiiy iste'dod va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi pedagogik sharoitlarni yaratish katta ahamiyatga ega. Shu sababli maxsus maktablarda zamonaviy innovatsion texnologiyalar, interfaol o'yin metodlari hamda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan uslublardan foydalanish muhim vazifa hisoblanadi [10].

Muloqot va nutq mexanizmlarini rivojlantirishda o'qituvchining ijodiy yondashuvi, qulay o'quv muhiti, hissiy-ruhiy qo'llab-quvvatlov va ijtimoiy faollikni rag'batlantiruvchi usullar asosiy o'rin tutadi. Maxsus maktablarda bu kabi yondashuvlar asosida olib borilayotgan faoliyat pedagogik jarayonning sifati oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maxsus maktab o'quvchilarida muloqot va nutq mexanizmlarining rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri ularning psixofiziologik holati, pedagogik yondashuvlar to'g'riligiga hamda ta'lim olishlari uchun yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarning sifati bilan bevosita bog'liqdir. Shuning

uchun bunday o'quvchilar bilan ishlashda standart ta'lim metodlari emas, balki individuallashtirilgan, moslashtirilgan va kommunikativ faollikni rag'batlantiruvchi metodikalar zarur hisoblanadi.

Xususan, muloqot va nutqni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar bolalarda nafaqat til faoliyatining shakllanishiga, balki ijtimoiy moslashuv, mustaqil fikrlash, emotsional barqarorlik kabi muhim shaxsiy sifatning kamol topishiga ham xizmat qiladi. O'quvchilarning individual ehtiyojlari asosida tuzilgan ta'lim dasturlari, interaktiv metodlar, o'yinli mashg'ulotlar, multimediyaviy vositalardan foydalanish orqali muloqot jarayonini qulay va samarali tashkil qilish mumkinligi isbotlandi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Maxsus maktablarda individual va differensial yondashuvga asoslangan o'quv-metodik tizimni yaratish, bu tizimda har bir o'quvchining nutqiy va kommunikativ salohiyatiga mos metodikalar ishlab chiqilishi lozim.

Pedagogik shart-sharoitlarni optimallashtirish: o'quv muhitini emotsional qo'llab-quvvatlovchi, ishonchli va motivatsion omillarga boy tarzda tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur.

Psixologik va pedagogik xizmatlar o'rtasida uzluksiz hamkorlikni yo'lga qo'yish: mazkur hamkorlik doirasida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish xaritalarini yuritish va ularga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish lozim.

Ota-onalar va oila a'zolari ishtirokida kommunikativ rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish: maxsus treninglar, maslahatlar va davra suhbatlari orqali oilaning ham ta'lim jarayoniga faol jalb qilinishi muhim.

O'qituvchilarning malakasini oshirish: ayniqsa, nutq buzilishlari va muloqot muammolari bilan ishlashga ixtisoslashgan logoped, defektolog va psixologlar tayyorlash bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

Yuqoridagi xulosalar asosida, maxsus ta'lim tizimida muloqot va nutqni rivojlantirish jarayonining zamonaviy, innovatsion va insonparvarlik asosidagi yondashuvlar bilan boyitilishi ijtimoiy integratsiyaga xizmat qiluvchi eng muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni - "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini 'Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili'da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida".
2. Tojiyev M., Alimov A.Ya., Quchqarov D.U. Pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga joriy etish (Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasi fani darslari loyihasi). Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2010. - 148 b.
3. Sadikova Y.K. "STEM ta'limini hamkorlikda o'qitish orqali tatbiq etish" // Kasb-hunar ta'limi jurnali, №10, 2024, 23-bet.
4. Qodirova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning zamonaviy metodlari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 52 b.
5. Alimova S. "Raqqamli ta'lim muhitining maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni" // Ta'lim va rivojlanish ilmiy jurnali, 2(7), 2018, 89–95-betlar.
6. Xoshimova D. Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2021. - 56 b.
7. Hasanboyeva O. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar" // Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 3(5), 2019, 56–62-betlar.
8. Makarova A.T. Nutq va fikrlashning rivojlanishi. Moskva: Pedagogika, 2003. - 256 b.
9. Perlmutter L.I. Psixologik-pedagogik yondashuvlar: nutq va muloqot. Sankt-Peterburg: Akademiya, 2004. - 245 b.
10. Shavkatovna M.D. "Art pedagogikasi maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarining ijodkorligini rivojlantirish vositasi sifatida" // Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 4(2), 124–127-betlar.